



“O‘TKAN KUNLAR” ASARIDA ZID MA’NOLI SO‘ZLARNING
QO‘LLANILISHI

Matkarimova Gulnoza Ergash qizi

JDPU O‘zbek tili va adabiyoti

fakulteti 3-bosqich talabasi

matkarimovaqulnoza454@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tarixiy romanchiligimizning asoschisi Abdulla Qodiriy ijodiga mansub asardagi so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari, xususan, antonimlarning qo‘llanilishi, uslubiy jihatlari haqida nazariy ma’lumotlar berilib, misollar asosida tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: so‘z, leksema, so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari, leksik antonimiya (zid ma’nolilar so‘zlar), frazeologik antonimiya (iboralar antonimligi), morfologik antonimiya (qo‘shimchalar antonimligi), enantiosemiya, mantiqiy markaz, kontekstual antonimiya.

So‘z bu barcha narsa va hodisalarning belgi-xususiyatlari, harakat va holatlarini ifodalashi uning atash (leksik, lug‘aviy) ma’nosi sanaladi. Faqat mustaqil so‘zlarga atash ma’nosiga ega bo‘ladi. Leksik mazmunli so‘zlar leksikologiyada o‘rganiladi.

O‘zbek tilshunosligida leksema ifoda plani va mazmun planlariga (nomema va sememalariga) ega bo‘lgan butun bir birlik ekanligi barchamizga yaxshi ma’lum.

Ammo, biz avvalo so‘z hamda leksema tushunchalarini farqlab olishimiz kerak. Masalan, “asarlarida” so‘ziga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, “asar” so‘ziga ko‘plik shaklini yasovchi affiks -lar, egalik qo‘shimchasi -i va o‘rin -payt kelishigi qo‘shimchasi -da qo‘shimchalari qo‘shilganligini ko‘ramiz. Ushbu so‘zning affikslardan holi bo‘lgan asos qismi uning leksemasi hisoblanadi.

Bilamizki, leksemalarning tilshunoslikda juda ko‘plab ma’nolari mavjud; masalan, leksemalarning o‘z ma’nosi (*denotativ*), ko‘chma ma’nosi (*konnatativ*), bosh ma’nosi, hosila ma’nosi, uzual va okkazional ma’nolari qolaversa, leksemalarning monosemiya (bir ma’nolilik), polisemiyasi (ko‘p ma’nolilik) haqida tushunchaga egamiz. Tilshunoslikda so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari bo‘lib, ular: leksik sinonimlar (ma’nodoshlar), leksik antonimlar (zid ma’nolilar), leksik omonimlar (shakldoshlar) va leksik paronimlar (talaffuzdoshlar)dir.

Antonimlar bir so‘z turkumi doirasida vujudga keladi; masalan, sifat: *katta*, *kichik*; ot: *yoz*, *qish*; fe’l: *kelmoq*, *ketmoq* va hokazo.

Antonimlarda *leksik antonimiya*, *frazeologik antonimiya*, *kontekstual antonimiya*, *enantiosemiya*, *antonimik juftlik*, *mantiqiy markaz* kabi tushunchalar mavjud.

Enantiosemiya esa, bitta leksema ma’nosida nutqiy muhit talabiga ko‘ra zidlanishning ifodalanishidir. **Antonimik juftlik** deganda ikkita leksema o‘rtasidagi





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

antonimik juftlikning hosil bo'lishidir, *katta-kichik* so'zlarini olsak, ularning har biri mustaqil so'z bo'lganligi tufayli ular antonimik juftlikni hosil qila oladi. Bundan tashqari, antonimiyada **mantiqiy markaz** tushunchasi bo'lib, ya'ni ikkita o'zaro zid ma'nodagi leksemalar o'rtasidagi oraliq tushunchalardir. Masalan, *chiroyli* va *xunuk* sifatleri o'rtasidagi *o'rtacha* so'zi mantiqiy markaz hisoblanadi.

Leksik antonimiya leksemalarning bir-biriga zid ma'no anglatishi asosida guruhlanishidir.

Antonimlar strukturasiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1) har xil strukturali antonim :katta-kichik
- 2) bir xil o'zakli antonim: aqlli-aqlsiz [4,115].

Antonimiyalarning qo'llanilish imkoniyatlarini badiiy asarlar misolida tahlil qilganda, antonimiyalarning o'rni, xususiyati, vazifalari nazarda tutiladi. Badiiy asarlarda ijodkor tomonidan so'zlarning qo'llanilish uslubi va mohiyati asarni o'ziga xosligini ta'minlaydi. Ijodkorning so'z qo'llash mahoratini, boshqa ijodkorlarga qaraganda farqli tomonlarini ochib beradi. Antonimlar va ularning barcha turlarini: leksik, morfologik, frazeologik hamda kontekstual antonimlarni Abdulla Qodiriyning asari misolida ko'rib chiqamiz.

“Uning qora zulfi par yostiqlarning turli tomoniga tartibsiz suratda to'zg'ib, quyug jinggila kiprik ostidagi tim qora bir nuqtaga tikilganda, nimadir bir narsani ko'rgan kabi...qop-qora kamon, o'tib ketgan naftis, qiyiq qoshlari chimirilganda, nimadir bir narsani ko'rgan kabi... to'lgan oydek g'uborsiz oq yuzi bir oz qizilliqqa aylangan-da, kimdandir uyalgan kabi...” [1,31]

Ushbu yuqoridagi parchadagi qora sifatiga nisbatan oq sifatini antonim deb olamiz.

Qolaversa, sifatning orttirma darajasiga mansub qop-qora sifatining antonimi sifatida esa quyidagi parchadagi so'zni;

“Bu chol Hasanali otliq bo'lib, oltmish yoshlar chamasida, cho'ziq yuzlik, do'ngg'irroq peshonalik, sariqqa moyil, to'garak qora ko'zlik, oppoq uzun saqollik edi.”[1,7] *“Og'ir tabiatlik, ulug' g'avdalik ko'rkam va oq yuzlik, kelishgan qora ko'zlik, mutanosib qora qoshlik va endigina murti sabz urgan bir yigit.”*[1,7], *“ikkinchisi: uzun bo'ylik, qora cho'tir yuzlik, chag'ir ko'zlik, chuvoq soqol, o'ttiz besh yoshlarda bo'lgan ko'rimsiz bir kishi edi.”* [1,7]. Yuqorida Otabekka berilgan ta'rifdagi ko'rkam so'ziga Homidga keltirilgan ta'rifdagi ko'rimsiz sifati va Otabekka nisbatan berilgan oq yuzlik va Kumushbibiga nisbatan berilgan ta'rifdagi to'lgan oydek g'uborsiz oq yuzi jumlasiga nisbatan Homidga berilgan qora cho'tir yuzlik ta'rifini antonim qilib olsak bo'ladi.

“Hasanali sekingina daricha ostig'a yotib, hujra ichiga quloq soldi.”[1,24]. Parchadagi ostig'a so'ziga nisbatan *“O'rni ustiga choponini yopdida, ko'rpasi ichiga kirib o'turdi.”* [1,25] parchasidagi ustiga so'zini antonim qilib olamiz. Qolaversa, Hasanali tasviri keltirilgan parchadagi sekingina ravishiga nisbatan *“Azizbek tezda berilmagani uchun minglab xalq O'rda atrofidan siljmay, hatto osh- suvlarini ham yeb, xotirjam yotib oldilar.”* [5,62] parchasidagi tezda holat ravishini antonim qilib olamiz. *“O'zim ko'rmadim, dedi Oftob oyim, - ammo ko'rguchilarning so'zlariga qarag'anda*





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

o'xshashsiz ko'rkam, tengsiz aqlli bir yigit emish"[1,57]. Yuqoridagi parchadagi *aqlli* sifatiga nisbatan quyidagi "*Sen aqlsiz o'lgur, Kumushni uyalting'ansan.*" [5,27] parchasidagi *aqlsiz* sifatini antonim qilib olamiz.

"*Otabek tusida xursand va xafaligi majhul bir holat bor edi.*" [1,53]. Ushbu yuqoridagi parchaning ichida o'zaro zid ma'no ifodalovchi so'zlar mavjud: *xafa, xursand*. "*Qutidorning tashqarig'a er mehmonlar, ichkariga xotin mehmonlar to'lg'anlar, ular quyuq, suyuq oshlar, holva, nisholdalar bilan izzatlandilar.*" [1,56]. Ushbu yuqoridagi parchadagi matn ichida o'zaro antonimlik hosil qiluvchi so'zlar mavjud: *tashqarig'a, ichkariga, quyuq, suyuq, er, xotin* (jins jihatidan). "*Tunlar uzoq, tongni ottirib, Otabekni quvontirishg'acha sabri chidamas, ko'z yumishga haligidek hayollar mone' bo'lar edi.*" [1,52]. Yuqoridagi parchadagi *tunlar* so'zi "*Qish kunlari bir tutam, ha deguncha*" *kech bo'ladi*" [1,34] parchasidagi *kunlar* so'ziga nisbatan antonimdir. "*Yigirma- o'ttiz chog'liq yosh yigitlar- Rahmatning o'rtoqlari, ular orasida Otabek - kuyov ko'rindi.*" [1,63]. Ushbu jumalardagi *yosh* sifatiga nisbatan "*Akram hoji elli besh yoshlar orasidag'i bir keksa edi.*" [1,14] parchasida keltirilgan *keksa* sifatini antonim qilib olamiz. "*Shu kezda uyning eshigi ochildi-da, yanga tomondan qarshilandi.*" [1,66] parchasidagi *ochildi* so'ziga nisbatan "*Qiya ochilib turg'an uy eshigi ham qattiqqina beklandi*" [1,67] parchasidagi *beklandi* so'zini antonim qilib olsak bo'ladi. "*Chunki shu daqiqada qutidor og'zidan yo rad va yo qabul javobi eshitar edi.*" [1,47]. Ushbu parcha tarkibida o'zaro zid ma'noli so'zlar mavjud: *rad, qabul*. "*Bu jihat bilan bu ishka rizolig'im bilinsa ham, biroq qarshilig'im shundadirki, kuyov toshkandlik bo'lgandan so'ng qizingizni o'zi bilan birga olib ketar va siz bilan meni yolg'iz bolamizdan ayirar...*" [1,50]. Ushbu parchadagi *rizolig'im, qarshilig'im* so'zlari o'zaro zid ma'no ifodalaydi. "*Yig'lama bekachim, - dedi To'ybeka, - biz bilamiz sizning ko'z yoshlaringizning nimaga ekanin: erlar so'yinganda kulsalar, sizga o'xshash qizlar yig'laydilar; sizning yig'lag'aningiz - quvong'aningiz.*" [1,54]. Ushbu parcha tarkibida ikkita o'zaro antonimik munosabatdagi fe'llar bo'lib, ular: *yig'lag'aningiz, quvong'aningiz*. "*Bu kishi otangizning yaqin do'stlaridan Mirzakarim qutidor.*" [1,14] parchadagi *do'stlaridan* so'ziga nisbatan "*Majburiyat ostida yov qarashi bilan sekingina dushmaniga qaradi...*" ("*O'tkan kunlar*" [1,66] parchasidagi *dushmaniga* so'zini olamiz: *do'st, dushman*. "*Hokimingiz juda zolim emish, bu to'g'ri so'zmu?*" [1,15] gapidagi *zolim* so'ziga nisbatan "*Otam bo'lmasangiz ham meni otaliq muhabbati bilan suygan sodiq va mehribon bir kishimsiz, ya'ni ma'naviy otam.*" [1,27] gapidagi *mehribon* so'zini antonim qilib olamiz. "*U birinchi so'roqdayoq - uchib, qo'nib qabul qilamiz deb javob bermog'chi bo'lsa ham biroq xalqning - "o'lib turgan ekan" deb qiladigan ta'nasidan cho'chib, javob bermaydir.*" [1,64] parchasida *uchib, qo'nib* fe'llaridan iborat antonimik juftliklar mavjud. "*Bu kishi kelib atlas ko'rpacha ustiga o'tturdi va o'zining salmoq tovushi bilan - Qalay, Xoliqbek, - dedi.*" [5,37]. Ushbu parchadagi *o'tturdi* fe'lga nisbatan quyidagi, "*Marg'ilonning ham shundan so'ng oyoqqa qalqishi kerakligini aytdi.*" [5,34-35] parchasidagi *fe'lli birikmani* antonim sifatida olsak bo'ladi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

“O‘ttaboy qushbegi zamona hokimlarining **tuzugi** bo‘lsa ham **ko‘p** bo‘lmasa **ozroq** ularning ta’siri bunda ham bor edi.” [1,80] parcha tarkibida o‘zaro antonimlar mavjud: *ko‘p*, *oz*. Bundan tashqari, tuzuk sifatiga nisbatan “Marg‘ilonning havosi **buziq** ekan, bir - ikki kundan beri manim ham ahvolim o‘zgarib boshladi” [1,26] parchasidagi *buziq* sifatini olsak bo‘ladi. “Hasanali va Kumushbibilarning **qayg‘ulari** yana bir qat oshdi, qo‘rqunchi ustiga qo‘rqunch qo‘shildi.” [1,84] parchasidagi *qayg‘ulari* so‘ziga “Toshkand mudofi‘lari ming turlik **shodliqlar** ichida tomosha qildilar” [1,86] parchasidagi *shodliqlar* so‘zini antonim sifatida olamiz.

“O‘zga xotinlar uning soyasiga salom berib **to‘ylarida**, **azalarida**, qisqasi tiq etgan yig‘inarida uylarining to‘rlarini O‘zbek oyimga atagan edilar.” [1,141]. Ushbu parcha tarkibida ikkita otlar, ya’ni *to‘ylarida* va *azalarida* o‘zaro antonimlik hosil qiladi. “Ular to‘xtab so‘zlashgan o‘rinlaridan xayrlashib **uzoqlashgach**, shundagi bir burchakdan choponig‘a burkangan bir kishi chiqib, haligilar kelgan tomong‘a qarab yurdi.” [1,22] jumalari tarkibidagi *uzoqlashgach* fe‘liga nisbatan “Shundan keyin bir- necha qadam bosib Otabekning pinjiga **yaqin keldi** va esankiragan, hayajonlang‘an bir tovush bilan so‘radi.” [1,66] parchasidagi *yaqin keldi* birikmasini antonim qilib olsak bo‘ladi.

So‘zimning avvalida antonimlarning turlari haqida atroflicha to‘xtalib o‘tgan edim, zid ma’noli so‘zlarning qo‘shimcha turlari sifatida *frazeologik*, *morfologik*, *sintaktik* antonimlarni ham keltirishimiz mumkin.

Frazeologik antonimiya – bu iboralar o‘rtasidagi o‘zaro zidlik, qarama- qarshilikdir. Misol uchun, “Qovog‘idan qor yog‘di” iborasiga nisbatan “Og‘zi qulog‘ida” iborasini antonim sifatida olsak bo‘ladi. Iboralar bir so‘zga teng hisoblanadi. Bu yerda “xafa” so‘ziga nisbatan “xursand” so‘zini antonim sifatida olinganligini bilishimiz mumkin.

Morfologik antonimiya esa affikslar antonimligidir. Old qo‘shimchalar *prefiks*, orqa qo‘shimchalar esa *suffiks* deb ataladi. So‘z yasovchi qo‘shimchalar yordamida otdan sifat, otdan fe‘l va hokazo so‘zlar yasaldi. Bunda bir xil asosdan iborat so‘zlarning affikslari o‘zaro antonim bo‘lsa, ular morfologik antonimlar hisoblanadi. Buni asardagi parcha orqali ko‘rishimiz mumkin:

“Musulmonqul o‘z g‘arazi yo‘lida orada yo‘q nizolarni qo‘zg‘ab, kuyavi Sheralixonni o‘ldirdi, **gunohsiz** Murodxonni shahid qildi.” [1,20], “Otabek qip-qizil qizarib **gunohkor**lardek yerga qarag‘an edi.” [1,29]. Ushbu ikkita parchadagi *gunohsiz* va *gunohkor* so‘zlarida qo‘shimchalar antonimligini ko‘ramiz. Bunda *gunoh* (ot) so‘ziga -kor va -siz so‘z yasovchi qo‘shimchalar qo‘shilib, sifat yasalgan. Bir asosli so‘zlarning suffikslari o‘zaro zid ma’no ifodalaydi. Prefiks, ya’ni old qo‘shimchalar suffiks, ya’ni orqa qo‘shimchaga nisbatan ham antonim bo‘lishi mumkin: *mehrli* va *bemehr* so‘zlari misolida ko‘ramiz.

Kontekstual antonimiya o‘zaro zid ma’no ifoda etmagan leksemalarning ma’lum kontekst ichida so‘zlovchi yoki muallif tomonidan antonimik munosabatga kiritilishidir. Buni quyidagi misralar tahlilida ko‘rish mumkin:

Ushoq **qand** oq **tuzga** monand erur,





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Va lekin biri tuz , biri qand erur. (A. Navoiy)

Aytur so 'zni ayt,

Aytmas so 'zdan qayt. (A. Navoiy)

Bu misollarda qo'llangan *qand* va *tuz*, *ayt* va *qayt* so'zlari aslida antonim emas, ammo birinchi misolning ikkinchi misrasida *tuz* va *qand* leksemalari muallifning leksik qo'llashi natijasida "*achchiq*" va "*shirin*" (demak, "*yaxshi*" va "*yomon*") ma'nolarini, ikkinchi misradagi *ayt* va *qayt* leksemalari "*ayt*" va "*aytma*" degan zid ma'nolarni ifoda etib, kontekstual antonimlarni hisil qilgan [2,171].

Tilimizdagi ko'pgina so'zlar to'g'ri ma'nosi bilan ham , ko'chma ma'nosi bilan ham antonim bo'la olmaganlari holda, ular nutqda bir-birlari bilan mazmunan zid tushunchalarni anglatib kelishi, qarama-qarshi ma'nolarda qo'llanilishi mumkin. Masalan, *faxr-qahr*, *o'tkir-past* so'zlari o'zaro to'g'ri va ko'chma ma'nolari bilan o'zaro antonim bo'la olmaydi yoki antonimik juflik yasay olmaydi. Ammo bu so'zlar ayrim gaplar (kontekstlar)da bir-biriga nisbatan qarama-qarshi ma'nolarda qo'llana oladi: *Ko'zlarida nozik bir o't bor. U faxr o'timi, yo qahr o'timi bilib bo'lmaydi (M. Ismoilij).* [3,54]

Asardagi kontekstual antonimlarga misollar: "*Qish kechalari juda uzun...*"[5,19], "*Qish kunlari bir tutam*"[5,15]. Ushbu parchalardagi qish kunlariga nisbatan berilgan sifatlar, ya'ni *uzun* va *bir tutam* kontekstual antonim hisoblanadi. Bunda *bir tutam* iborasi narsalarning siqimalash va tutamlash mumkin bo'lgan miqdorini bildiradi, leksik jihatdan *uzun* sifatiga nisbatan antonim hisoblanmasa ham , ma'lum kontekst ichida antonimlik hosil qilib , kontekstual antonimiyalar deb hisoblanadi.

"*Uning shu yo'sun mulohaza va fikrlari majlisga chivalgan ipning uchini topib bergandek bo'lib, lafzan bo'lmasa ham ma'nan ularning tahsin va olqishlarini oldi.*"[1,20]. Bu parchada keltirilgan *lafzan* hamda *ma'nan* so'zlari o'zaro antonim hisoblanmaydi, ammo ma'lum bir kontekstda antonimlik hosil qiladi, bunda *lafzan* , ya'ni tilda e'tirof qilmasa ham, *ma'nan* , ya'ni ong-u tafakkurlarida unga tahsin aytganlarini ifoda etmoqda . "*Yoshim oltmish to'rtka yetdi, o'g'ul-qizim... Dunyodan charog'chisiz boraman*" [1,52] hamda "*Ikki yoshning muhabbatlik , uvalik- juvalik bo'lishlariga zarrin to'nlar kiydirildi.*" [1,51]. Ushbu parchalardagi *uvalik- juvalik* hamda *charog'chisiz* sizlarini o'zaro kontekstual antonimlar deb olsak bo'ladi. Chunki *charog'chisiz* so'zi aslida *uvalik – juvalik* so'zlariga antonim hisoblanmasa-da, ma'lum kontekstda antonimlikka kirishadi, *charog'chi* so'zi "*o'limimdan keyin chirog'imni yoquvchi farzand*" ko'chma ma'nosida qo'llangan va *uvalik- juvalik* juft so'zlari ham "*bola- chaqali*" ma'nosini ifodalaydi va shu o'rinda *charog'chisiz* so'zidagi *-siz* suffiksiga *uvalik - juvalik* juft so'zlari tarkibidagi *-li* suffiksi (eski shakli *-lik*) ga nisbatan antonim hisoblanadi.

Asarda qo'llangan "*Bilgan topib gapirar, bilmagan – qopib*" [1,148] maqolida ham kontekstual antonimiyaga duch kelamiz, bunda *topib* va *qopib* so'zlari o'zaro leksik





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

antonim emas, ammo kontekstual antonimlikni hosil qilgan. “*Sen bizning naslimizni ko‘tarish o‘rniga yerga urib bulg‘ading*” [1,147]. O‘zbek oyim tomonidan Otabekka qarata aytilgan jumalardagi *ko‘tarish* fe‘liga *bulg‘ading* fe‘lini kontekstual antonim sifatida olamiz. Ushbu so‘zlar leksik jihatdan antonim emas, ko‘tarmoq fe‘liga antonim sifatida *tushirmoq*, *bulg‘amoq* fe‘liga nisbatan esa, *poklamoq* fe‘llarini olinadi. Ammo, bu ikki so‘z muallifning so‘z qo‘llash mahorati ila ma‘lum kontekstda antonimlikka kirishmoqda.

Chimildiq tasviri berilgan “*Kichkina nozik qo‘llar yelka ustiga , kuchlik qo‘llar qo‘ltiq ostiga yopishdilar.*” [1,66] jumalaridagi *nozik* va *kuchlik* sifatlari o‘zaro kontekstual antonimlar hisoblanadi. Bundan tashqari, “*Azizbek zulmidan aholi juda to‘yg‘an*” [1,15] va “*Otam sizning bilan o‘lturishib Toshkand ahvolidan so‘zlashmakka mushtoqdirlar*” [1,13]. Ushbu parchadagi *to‘yg‘an* so‘zi *mushtoq* so‘ziga leksik antonim hisoblanmaydi, *to‘yg‘an* so‘zini ko‘chma ma’noda “*bezor bo‘lgan*” ma’nosida bergan , shu tufayli bu so‘z *mushtoq* ya’ni “*intizor*” so‘zlariga kontekstual antonimlikka kirisha oladi.

“*Ul hozir qiziq holatda edi : bu nima gap, tushimmi , o‘ngimmi , nima gaplar o‘tib , nimalar bo‘lmoqda, bo‘lib turgan ish haqiqatmi?*” [1,65]. Ushbu parchadagi *tush* va *o‘ng* so‘zlarini ham kontekstual antonim sifatida olamiz. Chunki *o‘ng* so‘zining ko‘chma ma’nosi qo‘llangan bo‘lib, u aslida *chap* so‘ziga antonimdir. Ammo, ma‘lum kontekst ichida bu ikki so‘z kontekstual antonimlik hosil qilmoqda.

Bu kun sakkiz kundan beriga – “kutilmagan bir baxt” egasi bo‘lib olgan Kumushbibi uchun bu hol kutilmagan bir baxtsizlik, kutilmagan bir falokat edi” [1,83] parchasidagi *baxt* va *falokat* mavhum otlarini ham biz kontekstual antonim sifatida olsak bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, ijodkorning buyuk romani nafaqat , adabiy-badiiy, tarixiy, siyosiy, ijtimoiy ahamiyatga molik asar, balki, tilshunoslik sohasida ham o‘rganilishida o‘zining yuqori salmog‘iga ega bo‘lgan, til birliklarini chuqur tahlil qilishga asos bo‘la oladigan keng ko‘lamdagi ilmiy masalalarni o‘rtaga tashlaydigan yuksak, benazir asar desak xato bo‘lmaydi. Badiiy asarlarda antonimlarning qo‘llanilishi , uning uslubiy bo‘yoqdorligini oshishiga, qolaversa, oddiy so‘zlashuv uslubida qo‘llaniluvchi so‘zlardan ko‘ra ma’no qirralari keng bo‘lgan noyob so‘zlar qo‘llanilishi orqali asarni juda yuksak darajada yoritib berilishiga xizmat qiladi. So‘zlarni o‘z o‘rnida qo‘llashga har qanday inson emas, balki, haqiqiy so‘z san’atkorlari, nafaqat o‘z zamonasida, qolaversa, bizning zamonimizda ham asarlariga teng keluvchi asar topilmaydigan buyuk shaxslargina qodir deb hisoblayman. Abdulla Qodiriy mana shunday noyob ijodkorlarimizdan biri edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Qodiriy O‘tkan kunlar. Ilm-ziyo-zakovat. Toshkent – 2019
2. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent – Talqin – 2005
3. Shukurov R. O‘zbek tilida antonimlar. Toshkent – 1977
4. Sayfullayeva R. R, Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent – 2009.
5. www.ziyouz.com elektron kutubxonasi. Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar

